

1. Assaker, G. (2020). The role of social media in promoting tourism: A review of literature. *Journal of Hospitality and Tourism Technology*, 11(4), 571-587.
2. Effing, R., & Spil, T. A. (2016). The social strategy cone: Towards a framework for evaluating social media strategies. *International Journal of Information Management*, 36(1), 1-8.
3. Hays, S., Page, S. J., & Buhalis, D. (2013). Social media as a destination marketing tool: Its use by national tourism organisations. *Current Issues in Tourism*, 16(3), 211-239.
4. Hudson, S., Roth, M. S., Madden, T. J., & Hudson, R. (2015). The effects of social media on emotions, brand relationship quality, and word of mouth: An empirical study of music festival attendees. *Tourism Management*, 47, 68-76.
5. Királová, A., & Pavlíčka, A. (2015). Development of social media strategies in tourism destination management. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 175, 358-366.
6. Mariani, M. M., Di Felice, M., & Mura, M. (2016). Facebook as a destination marketing tool: Evidence from Italian regional destination management organizations. *Tourism Management*, 54, 321-343.
7. Miguéns, J., Baggio, R., & Costa, C. (2008). Social media and tourism destinations: TripAdvisor case study. *Advances in Tourism Research*, 26, 26-28.
8. Sigala, M. (2012). Social media and crisis management in tourism: Applications and implications for research. *Information Technology & Tourism*, 13(2), 83-103.
9. Stankov, U., & Gretzel, U. (2020). Tourism 4.0 technologies and tourist experiences: A human-centered design perspective. *Tourism Management Perspectives*, 35, 100702.
10. Tanti, A., & Buhalis, D. (2016). Connectivity and the consequences of being (dis)connected: Cruise experiences in a hyper-connected world. *Journal of Hospitality and Tourism Technology*, 7(4), 347-365.
11. Tham, A., Croy, W. G., & Mair, J. (2013). Social media in destination choice: Distinctive and influential. *Journal of Travel & Tourism Marketing*, 30(1-2), 144-155.
12. Xiang, Z., & Gretzel, U. (2010). Role of social media in online travel information search. *Tourism Management*, 31(2), 179-188.
13. Zeng, B., & Gerritsen, R. (2014). What do we know about social media in tourism? A review. *Tourism Management Perspectives*, 10, 27-36.
14. Ye, Q., Law, R., & Gu, B. (2009). The impact of online user reviews on hotel room sales. *International Journal of Hospitality Management*, 28(1), 180-182.
15. Yoo, K. H., & Gretzel, U. (2011). Influence of personality on travel-related consumer-generated media creation. *Computers in Human Behavior*, 27(2), 609-621.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY NATIJALAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Murtazova Sahodat Bo'riyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Tarix va ijtimoiy fanlar" kafedrası

mudiri, t.f.f.d., prof.v.b.

E-mail: sahodat@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar, qabul qilingan qaror va farmonlar, ularning inson omiliga yo'naltirilganligi kabi masalalar atroflicha tahlil etiladi. Turizm har bir mamlakatning ham iqtisodiy, ham ma'naviy, ham madaniy nuqtai-nazardan mavjud imkoniyatlarini asrab-avaylanishi, rivojlanishi va jahonga tanitishdek muhim jihatlarni o'zini namoyon etishiga doir fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, Qashqadaryo vohasining turizm salohiyati, uni rivojlantirishga oid ma'lumotlar ham yoritilgan. Xususan, bugungi kunda mamlakatimizda o'tkazib kelinayotgan turli xalqaro festivallar, tanlovlar negizida turizmni rivojlantirish masalasi ham ko'zda tutilganligi, ichki turizmni rivojlantirish, ziyorat turizmini rivojlantirish va xorijiy

sayyohlarni jalb etish borasida infrastrukturani yaxshilash kabi jihatlar tizimli tarzda ochib berilgan.

Kalitli soʻzlar: islohot, turizm, voha, baxshi, maqom, innovatsiya, modernizatsiya, festival, toʻsiqsiz turizm, inson-davlat-jamiyat, hunarmandchilik, gilamdoʻzlik, ziyorat turizmi, ichki turizm, Qaror, Farmon.

Kirish: Bugun zamon shiddat bilan oʻzgarib bormoqda. Albatta har bir sohada islohotlar zamon bilan hamnafas holda olib borilsa, bugungi fan, texnika, texnologiya yutuqlaridan samarali foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi.

Mamlakatimiz mutaqqilligining dastlabki yillaridan boshlab, Oʻzbekistonning boy imkoniyatlaridan, tabiiy resurslaridan foydalanish va azaliy qadriyatlarimiz, anʼanalarimizni jahonga tanitish borasida amaliy ishlar boshlab yuborildi. Bu borada albatta Oʻzbekistonni turizm imkoniyatlaridan ham samarali foydalanish koʻzda tutildi. Shuningdek, mazkur soha rivoji uchun qator huquqiy-meʼyoriy hujjatlar ham qabul qilindi.

2022 yil 30 apreldagi PQ-232-sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi, 2023 yil 27 iyuldagi PQ-238-sonli “Turizm yoʻnalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Prezident Qarorlarida mamlakatda Turizm sohasini yuqori bosqichga koʻtarishga doir amalga oshirilgan ishlar sirasiga kiradi.

“Oʻzbekiston Respublikasida toʻsiqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni ragʻbatlantirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Prezident Qarorida:

- turizm namoyishi obʼektlari infratuzilmasi, birinchi navbatda madaniy meros obʼektlari, ziyorat obʼektlari, muzeylar, teatrlar va joylashtirish vositalarida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

- turizm sohasi subʼektlari, shu jumladan, turoperator va turagentlar, joylashtirish vositalari hamda transport xizmatlarini koʻrsatuvchi tadbirkorlik subʼektlari, shuningdek, nogironligi boʻlgan shaxslarga sayohat davomida hamrohlik qiluvchi fuqarolarni ragʻbatlantirish [6];

- nogironligi boʻlgan shaxslarning toʻsiqsiz turizmni amalga oshirishlari uchun yaratilgan imkoniyatlarni tizimli hamda faol targʻibot kampaniyalarini tashkil etish orqali ular xabardorligini oshirish;

- zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm namoyishi obʼektlarida koʻrsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish kabi chora-tadbirlar mamlakatimizda inson qadri uchun, uning ijtimoiy muhofazasi uchun koʻrsatilayotgan eʼtibordan dalolat beradi [6].

Asosiy qism: Turizmni rivojlantirish uchun birinchi navbatda Oʻzbekistonni, xususan Qashqadaryo viloyatini turizm imkoniyatlarini olib qaraydigan boʻlsak, bizga bu borada azaldan ajdodlarimiz Buyuk ipak yoʻli orqali oʻzaro savdo-iqtisodiy munosabatlarni yoʻlga qoʻyganligi, madaniyatlar, anʼanalar almashingani sir emas.

Bugun fan, taʼlim, madaniyat va amaliyot integratsiyasi yaʼni ilm-fan va amaliyotni bir-biri bilan aloqadorligi talab darajasida boʻlsa maqsadga muvofiq boʻladi.

Olimlarimiz turizm haqida, vohani, hududni oʻziga xosligi haqida koʻp oʻrganishlar, izlanishlar olib borishmoqda. Uni amaliyotga tadbirigʻi haqida albatta qoʻlga kiritilgan ilmiy natijalar, xulosalar asosida shaharsozlik va turistik infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirish lozim.

Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadida oʻz ichki imkoniyatlarini ishga solish, yuqori oʻsish koʻrsatkichlariga erishishga alohida eʼtibor qaratishmoqda.

Bu borada qator huquqiy-meʼyoriy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, hukumat Qashqadaryo viloyatida yangi turizm yoʻnalishlarini tashkil etish boʻyicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqladi. Vazirlar Mahkamasining 8 mart 2019 yildagi 198-sonli qaroriga asosan bir qator chora-tadbirlar belgilandi [3]. Masalan, etnoturizm yoʻnalishi boʻyicha - Gʻilon va Koʻl qishloqlarida, har birida 5 tadan mehmon uylari qurilishi, shuningdek etnoqishloq – Amir Temur

jangchilarining harbiy tayyorgarlik lageriga asos solinishi, agroturizm yo'nalishi bo'yicha – Varganza va Hazrati Bashir qishloqlarida «Anor» festivali o'tkazilishi, ekstremal turizm yo'nalishi bo'yicha – Tatar, Zarmast va Vari qishloqlarining har birida 5 ta mehmon uylari, 5 ta kemping va 10 ta o'tov qurilishi belgilangan. Ekologik turizm bo'yicha – Sarchashma va Suvtushar qishloqlarida, astronomik turizm bo'yicha – Kitob kenglik stansiyasi hududida qator loyihalar amalga oshirilishi belgilangan [3].

Birgina ziyorat turizmini oladigan bo'lsak, masalan, Sulton Mir Haydar Ota ziyoratgohi misolida qaraydigan bo'lsak, bu shaxsning, ma'naviy salohiyati, islom ilmiga qo'shgan hissasi, Kalom ilmining bilimdoni ekanligi, Makkada imomlik qilgan ulug' zot sifatida ma'lum. Sulton Mir Haydar otaga Amir Temur bobomiz ham alohida ehtirom ko'rsatganligini ko'rsatish, ziyoratgohga kiraverishda allomaning hayoti va faoliyati tarixiga oid ma'lumotlar, stendlar bilan boyitish, yoshlarni ongiga singdirish maqsadida bugungi zamonaviy texnika-texnologiya namunalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bugun jamiyatimizda Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda inson-davlat –jamiyat omili ustuvor mezon bo'lib hisoblanadi.

Shunday ekan, har bir fuqaro, har bir insonga bugungi kunda munosib turmush sharoiti yaratib berilmoqda. To'siqsiz turizmni rivojlantirish, rag'batlantirish va qulay shart-sharoit yaratish maqsadida qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar, qaror loyihalari qabul qilingan.

Turizm namoyishi ob'ektlari infratuzilmasi, birinchi navbatda madaniy meros va ziyorat ob'ektlari, muzeylar, teatrlar va joylashtirish vositalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish;

-turizm sohasi sub'ektlari, shu jumladan, turoperator va turagent-lar, joylashtirish vositalari hamda transport xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari, shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarga sayohat davomida hamrohlik qiluvchi fuqarolarni rag'batlantirish;

-nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz turizmni amalga oshirishlari uchun yaratilgan imkoniyatlarni tizimli hamda faol targ'ibot kampaniyalarini tashkil etish orqali ular xabardorligini oshirish;

-zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda turizm namoyishi ob'ektlarida ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish;

-NNTlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, fuqarolar va homiylik xayriyalari hamda xorijiy tashkilotlarning grant mablag'larini jalb qilish tizimini takomillashtirish orqali to'siqsiz turizmni amalga oshirish kabilar belgilangan.

2023 yildan boshlab respublika hududlarida quyidagi bosqichlarda «To'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi» amalga oshirilishi belgilangan. «To'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi»ni moliyalashtirish Respublikaning davlat budjeti, homiylik mablag'lari va grantlar orqali amalga oshirilishi qayd etilgan.

Yuqoridagi maqsadlar besh yilga Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirishga oid davlat dasturiga kiritilgan.

2023 yil 1 yanvardan boshlab madaniy meros ob'ektlarini restavratsiya qilish va tiklash uchun O'zbekiston davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning 2 foizi nogironligi bo'lgan shaxslarning to'siqsiz harakatlanishi uchun madaniy meros ob'ektlariga har qanday shikast yetkazishning oldini olgan holda pandus, plintus va liftlar o'rnatishga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 35-maqjadi «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish qayd etilgan bo'lib, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish, Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan

samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish, Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va «Aydar-Arnasoy» ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish, Samarqandni «Turizm darvozasi»ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish, turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash, 2022 yilda «Abadiy shahar» tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan Samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish kabi ezgu maqsad va muddaolar amalga oshirilishi ko'zga tutilgan [2].

Shuningdek, O'zbekistonning boshqa viloyatlari, turizmning boshqa turlarini ham keng targ'ib etish, soha rivojida modernizatsiya-innovatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, loyihalar, tanlovlar e'lon qilish albatta turizm sohasining rivoji uchun xizmat qiladi.

Qashqadaryo vohasi misolida olib qaraydigan bo'lsak, vohada turizmning barcha sohalarini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Birgina voha etnografiyasi, xalq og'zaki ijodi, an'ana va qadriyatlarini olib qaraydigan bo'lsak, bu borada vohada mazkur sohaning yetuk vakillari, xalq og'zaki ijodining terma, lapar, baxshichilik, folklor an'analari borki, bu o'ziga xos bir maktab vazifasini o'taydi [4].

Shahrisabzda o'tkazilgan "Maqom" festivali, unda ishtirok etgan 70 dan ortiq xorijliklarning vohaning turizm imkoniyatlariga hayrat bilan qaraganligiga guvoh bo'lganmiz. Shuni alohida qayd etish kerakki, vohaning turizm imkoniyatlari, salohiyatidan hali to'laligicha foydalanilmayotganligi sir emas albatta [4].

Yoki voha hunarmandchiligiga to'xtaladigan bo'lsak, Koson, Mirishkor, Kasbi tumanlarida momolarimiz to'qigan gilamlarning to'qilish uslubi, rangi, gilamlarga solingan naqsh shakllarining o'ziga xosligi barchani lol qoldiradi. 2017 yilda YuNYeSKO bosh Assambleyasining O'zbekistondagi vakolatxonasi boshlig'i Fuad Pashayev, San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti professorlari ishtirokida bo'lib o'tgan seminar-treningda voha gilamdo'zligiga katta qiziqish bilan qaralganligini alohida ta'kidlash o'rinli [6].

Xulosa: Sohada modernizatsiya-innovatsiya vositalaridan, vohaning turizm salohiyati targ'ibotida bugungi zamonaviy axborot texnologiya-larining imkoniyatidan unumli foydalanish maqsad muvofiqdir. Ko'hna va navqiron Qashqadaryo vohasida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga egadir. Faqat bu borada tizimli ishlarni amalga oshirish, bor imkoniyatlarni talab darajasida namoyon etish lozim bo'ladi.

Taklif: Iqtidorli yoshlar va soha vakillari ishtirokida turizmni rivojlantirishga doir innovatsion g'oyalar start-up loyihalar tanlovlarini tashkil etish va turizmni rivojlantirishga turtki beradigan g'oyalarni soha mutaxassislari va keng jamoatchlik vakillari, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida g'olib deb topilgan g'oya mualliflarini rag'batlantirish va amalga oshirish mexanizmini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 dekabrda Oliy Majlis va keng jamoatchilikka yo'llagan Murojaatnomasi./2022 yil 20 dekabr, www.uza.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni./ 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida./ <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Vazirlar Mahkamasining 8 mart 2019 yildagi 198-sonli qarori. <https://uza.uz>.
4. https://www.norma.uz/qonunchilikda/yangi/qashqadareda_turizm_istalgan_yunalishda
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
6. Og'zaki tarix. Axborot beruvchi S.B.Murtazova
7. <https://kun.uz/kr/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalarga-olib-keldi>